



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 18-avgust

VII-13-92-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **Yoshlar ishlari agentligi Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi boshlig‘i L.Abduqaxxorovning 2025-yil 6 oyi yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisoboti to‘g‘risida**

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-92-son Qarorini ijrosi, shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi boshlig‘i L.Abduqaxxorovning 2025-yil 6 oyi yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisobotini muhokama etib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi yettinchi chaqiriq o‘n uchinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Yoshlar ishlari agentligi Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘limi boshlig‘i L.Abduqaxxorovning “2025-yil 6 oyi yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisobotida kamchiliklar bo‘lganligi sababli deputatlar tomonidan tanqidiy fikrlar bildirilganligi inobatga olib, bir oy muddatda hisobotni takomillashtirilgan holda qaytadan navbatdagi sessiyada hisoboti muhokama qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-92-son Qarorini ijrosi hamda tumanda yoshlarga berilgan shart-sharoitlarni o‘rganib chiqib, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i L.Abduqaxxorovning hisobotini doimiy komissiya yig‘ilishida qayta muhokama qilib, tuman Kengashining navbatdagi sessiyalar muhokamasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

3. Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi rahbari L.Abduqaxxorov Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyalarida tumanda yoshlar beriladigan shart-sharoitlar to‘g‘ridagi muhokamalarga puxta tayyorgarlik ko‘rib ishtirok etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (O.Shirinov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH